



THE CONCEPT OF DIGITAL SPIRITUALITY IN NEW UZBEKISTAN AND ITS DEVELOPMENT DIRECTIONS

Madina Shoxitbekovna Sayfutdinova

Independent Researcher

Andijan State Pedagogical Institute

Andijan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: New Uzbekistan, digital spirituality, digital transformation, information technologies, virtual environment, social networks, spiritual values, digital ethics, spiritual immunity, cultural dialogue, youth education, educational activities.

Received: 16.09.25

Accepted: 17.09.25

Published: 18.09.25

Abstract: This article analyzes the essence of the concept of digital spirituality in New Uzbekistan and its development directions. In the process of digital transformation, the influence of information technologies, social networks, and the virtual environment on the formation of spiritual values is highlighted. It also reveals the role of digital spirituality in the development of moral norms, cultural communication, and educational activities in society. The article substantiates directions for strengthening spirituality in the digital space, strengthening spiritual immunity in the minds of young people, and forming the principles of digital ethics.

YANGI O'ZBEKISTONDA RAQAMLI MA'NAVIYAT TUSHUNCHASI VA UNING RIVOJLANISH YO'NALISHLARI

Madina Shoxitbekovna Sayfutdinova

Mustaqil tadqiqotchi

Andijon davlat pedagogika instituti

Andijon, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, raqamli ma'naviyat, raqamli transformatsiya, axborot texnologiyalari, virtual muhit, ijtimoiy tarmoqlar, ma'naviy qadriyatlar, raqamli axloq, ma'naviy immunitet, madaniy muloqot, yoshlar tarbiyası, ma'rifiy faoliyat.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Yangi O'zbekistonda raqamli ma'naviyat tushunchasining mazmun-mohiyati va uning rivojlanish yo'nalishlari tahlil etiladi. Raqamli transformatsiya jarayonida axborot texnologiyalari, ijtimoiy tarmoqlar va virtual muhitning ma'naviy qadriyatlar shakllanishiga ta'siri yoritiladi. Shuningdek, raqamli ma'naviyatning jamiyatda axloqiy me'yorlar,

madaniy muloqot va ma'rifiy faoliyatni rivojlantirishdagi o'rni ochib beriladi. Maqolada raqamli makonda ma'naviyatni mustahkamlash, yoshlar ongida ma'naviy immunitetni kuchaytirish va raqamli etika tamoyillarini shakllantirish bo'yicha yo'nalishlar asoslab beriladi.

ПОНЯТИЕ ЦИФРОВОЙ ДУХОВНОСТИ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ И НАПРАВЛЕНИЯ ЕЕ РАЗВИТИЯ

Мадина Шохитбековна Сайфутдинова

Независимый исследователь

Андижанский государственный педагогический институт

Андижан, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:

Узбекистан, цифровая духовность, цифровая трансформация, информационные технологии, виртуальная среда, социальные сети, духовные ценности, цифровая этика, духовный иммунитет, культурный диалог, воспитание молодежи, просветительская деятельность.

Аннотация: В данной статье

анализируется сущность понятия цифровой духовности в Новом Узбекистане и направления ее развития. В процессе цифровой трансформации освещается влияние информационных технологий, социальных сетей и виртуальной среды на формирование духовных ценностей. Также раскрывается роль цифровой духовности в развитии нравственных норм, культурного общения и просветительской деятельности в обществе. В статье обосновываются направления по укреплению духовности в цифровом пространстве, усилиению духовного иммунитета в сознании молодежи и формированию принципов цифровой этики.

Kirish. “Raqamli ma'naviyat” tushunchasiga ta'rif berish, uni ontologik, gnoseologik jihatdan asoslash uchun eng avvalo ma'naviyat tushunchasining mazmuni va rivojlanish tendensiyasini ko'rib chiqish muhim hisoblanadi. “Ma'naviyat” tushunchasi klassik falsafada ontologik va aksiologik mazmunda, zamonaviy falsafada esa kommunikativ, madaniy va texnologik kontekstda izohlanadigan ijtimoiy voqeilik sidafatida talqin qilinadi. U insonning ichki dunyosi, axloqiy tanlovi, ruhiy mukammalligi va jamiyatdagi qadriyatlar tizimi bilan chambarchas bog'liq. Falsafa uchun ma'naviyat bu faqat axloqiy tartib emas, balki insoniy mavjudlikning eng muhim, mazmunli va izchil yo'nalishidir. Bugungi global mashhuv va raqamlashtirish davrida ma'naviyatni yangicha talqin qilish, uni falsafiy jihatdan anglash va ijtimoiy amaliyot bilan uyg'unlashtirish dolzarb vazifalardan biridir.

Klassik G'arb falsafasida “ma’naviyat” tushunchasining shakllanishi Platon va Aristotel kabi faylasuflar qarashlariga borib taqaladi. Platon uchun ma’naviyat – bu “g‘oyalar dunyosi”ga intilish, haqiqiy go‘zallik, ezhulik va adolatni anglashga bo‘lgan harakatdir. Unga ko‘ra, “ruhiy hayot moddiy hayotdan ustundir, va inson o‘z mohiyatini topishi uchun ruhiy-a1xloqiy poklanishdan o‘tishi kerak”[1]. Demak, inson o‘zligini anglash va haqiqiy erkinlikka erishish uchun ruhiy poklanish, axloqiy o‘zgarish va o‘z ustida ishlash jarayonidan o‘tishi zarur. Bu esa Platonning ruhiy-ma’naviy yuksalishni eng oliy qadriyat sifatida ko‘rganini tasdiqlaydi. Aristotel esa ma’naviyatni insonning “eudaimonia” – ya’ni baxt va mukammallik sari intilishida ko‘radi. “Axloqiy fazilatlar va ongli tanlov orqali inson mukammallikka yetadi, bu esa ma’naviy hayotning mohiyatini tashkil etadi”[2]. Insonning ma’naviy kamolotga erishishi tasodifiy emas, balki ongli tanlovlar va doimiy axloqiy harakatlar natijasidir. Bu yondashuv ma’naviy hayotni passiv holat emas, balki faol, ongli va izchil sa’y-harakatlar bilan shakllanuvchi jarayon sifatida ko‘rsatadi. Demak, inson mukammallikka intilish yo‘lida har bir qarorini axloqiy mezonlarga asoslanib, o‘zini tarbiyalab borishi orqali chinakam ma’naviy hayotni bunyod etadi. Bu esa axloq va ong uyg‘unligini ma’naviyatning markaziy omili sifatida belgilaydi.

Mazkur mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Raqamli ma’naviyat tushunchasi Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli transformatsiya va ma’naviy qadriyatlar uyg‘unligi bilan izohlanadi. Ilmiy manbalarda raqamli etika, yoshlarning media madaniyati, axborot xavfsizligi va virtual makonda ma’naviy immunitet masalalari alohida ta’kidlangan. Shuningdek, zamonaviy adabiyotlarda raqamli ma’naviyatning tarbiya, ta’lim, madaniy muloqot va fuqarolik jamiyatini mustahkamlashdagi ahamiyati keng tahlil etilgan.

Tahlil va natijalar. Sharq falsafasida, xususan, Ibn Sino, Forobiy va G‘azzoiy singari allomalar ta’limotida ma’naviyat inson qalbining pokligi, aql bilan yurak uyg‘unligida yashashi orqali anglanadi. Forobiy “Fozil oddamlar shahri” asarida ma’naviy yetuklikni jamiyat boshqaruvining axloqiy asosiga aylantiradi. Ibn Sino esa inson ruhining darajalari va va uni kamolot sari olib boruvchi ichki kuch – “ma’naviy aql” haqida fikr yuritadi.

Yangi davr falsafasida ma’naviyatga yondashuvlarning mohiyatini to‘liq anglash uchun nemis, ingliz va fransuz mutafakkirlarining qarashlarini qamrab olish o‘rinli bo‘ladi. Yangi davr (XVII–XIX asrlar) falsafasida ma’naviyat tushunchasi subyektivlik, ong va axloqiy ong doirasida keng tahlil qilina boshladi. R.Dekartning “Men o‘ylayman, demak, mavjudman” degan mashhur tezisi ruhiy hayotni jismoniy hayotdan ustun qo‘yadi va ong markazida insonning “ma’naviy men”i turadi.

I.Kant esa ma’naviyatni axloqiy qonun bilan bog‘laydi. Unga ko‘ra, “inson o‘zida “asosiy axloqiy tamoyil” – kategorik imperativ orqali ma’naviyatga erishadi. Kant fikricha, “inson ichki erkinlik asosida axloqiy tanlov qiladi va bu tanlov ma’naviyatning asosiy ko‘rinishidir”[3].

G.Gegel esa ma’naviyatni “absolut ruh”ning o‘z-o‘zini anglash jarayoni sifatida talqin etadi. Unga ko‘ra, “tarix – bu ruhning ma’naviy yetuklik sari harakati bo‘lib, san’at, din va falsafa bu ruhiy taraqqiyotning bosqichlaridir”[4]. F.Nitshe esa klassik axloq va ma’naviyatga qarshi chiqadi. U “ma’naviy inqiroz” tushunchasini ilgari suradi va “xudoni anglash” orqali inson o‘z qadriyatlarini yaratishga da’vat etadi. Bu esa zamonaviy nigelizm va postmodern qarashlar uchun zamin yaratadi.

XX–XXI asrlarda falsafa ma’naviyat tushunchasini yangicha ijtimoiy, madaniy, kommunikativ va texnologik kontekstlarda qayta talqin qiladi. Bugungi kunda ma’naviyatga yondashuvlar bir necha asosiy yo‘nalishlarda ekzestensial, madaniy-falsafiy, postmodern texnokratik yondashuvlar asosida rivojlanib, yangi ko‘rinishlarda namoyon bo‘lmoqda:

1) E. Xaydegger, J.P.Satr, K.Yaspers kabi faylasuflar ma’naviyatni insonning mavjudlik bilan yuzma-yuz kelishi, o‘z hayotiga ma’no berishdagi erkin tanlovi bilan bog‘laydi. Sartr uchun inson o‘zini o‘zi yaratadi, va ma’naviyat bu jarayonda ichki halollik, mas’uliyat va axloqiy jasorat bilan bog‘liq holda shakllanadi.

2) K.Kassirer, M.Fuko, Yu.Xabermas va boshqa zamonaviy faylasuflar ma’naviyatni madaniy kodlar, ijtimoiy kommunikatsiya va tarixiy kontekstlar orqali tahlil qiladi. Xabermas uchun ma’naviyat – bu “kommunikativ aql” orqali yuzaga keluvchi axloqiy muloqot madaniyatidir.

3) J. Derrida, M. Lyotard va boshqa postmodernistlar ma’naviyatning doimiy va barqaror mohiyati yo‘qligini ta’kidlab, uni “dekonstruksiya” qiladi. Ular uchun ma’naviyat doimiy o‘zgaruvchan, kontekstual va subyektiv jarayondir. Bu yondashuv zamonaviy jamiyatda ma’naviy relativizm va qadriyatlar xilma-xilligini oqlaydi.

4) XXI asrda raqamli texnologiyalar taraqqiyoti bilan ma’naviyat ham yangi, “raqamli” ko‘rinishlarga ega bo‘lmoqda. Rqamli muhitda axloqiy me’yorlar, shaxsiy fazilatlar va ruhiy qadriyatlar yangicha muammolar bilan to‘qnash kelib, sun’iy intellekt, kiberaxloq, axborot xavfsizligi, virtual haqiqat kabi konsepsiylar zamonaviy ma’naviy ongning yangi qirralarida, “raqamli ma’naviyat” tushunchasi keng jamoatchilik muhokamasidagi ijtimoiy hodisaga aylandi.

Yuqoridagi ma’naviyatning tarixiy jarayonlarda rivojlanish kontekstidan kelib chiqib, raqamli ma’aniyat tushunchasiga berilgan bir qancha ilmiy-falsafiy adabiyotlarni o‘rganib bir qator fikrlar tizimi shakllanganligi e’tiborimizni tortdi. Aynan raqamli ma’naviyat tushunchasiga Xorijlik, MDH davlatlari va O‘zbekistonlik olimlar va faylasuflarning ilmiy izlanishlari, monografik tadqiqotlari, maqola va tezislariida “Raqamli ma’naviyat” tushunchasi hali aniq, to‘liq shakllangan mustaqil fan sohasi bo‘lmasa-da, unga oid jihatlar turli olimlar tomonidan raqamli axloq, axborot etikasi, raqamli madaniyat, identitet va texnologik ong doirasida tadqiq etilganligiga guvoh bo‘ldik. Raqamli ma’naviyat – bu insoniyatning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) orqali shakllanayotgan ma’naviy-axloqiy qadriyatlar, axborot maydonida

yuzaga kelayotgan axloqiy ong, madaniy xotira va ruhiy holatlarning virtual muhitdagi aksidir. Mazkur tushuncha raqamli transformatsiya sharoitida jamiyat ma’naviyatining yangi shakllanish bosqichini anglatib, an’anaviy ma’naviy qadriyatlarning raqamli muhitga ko‘chishi, moslashuvi va u yerda o‘ziga xos tarzda qayta shakllanish jarayonini falsafiy tahlil qilish zaruratidan kelib chiqadi.

Raqamli ma’naviyatning asosini “inson, uning axloqiy tanlovi, ijtimoiy mas’uliyati va raqamli makondagi faoliyatining axloqiy mezonlarga muvofiqligi xizmat qiladi. Bu kontseptsiya individual va ijtimoiy ongda shakllanayotgan raqamli axloqiy me’yorlarni, shuningdek, axborot resurslari bilan munosabatlarda namoyon bo‘ladigan ma’naviy qadriyatlarni o‘z ichiga oladi”[5]. Shu jihatdan, raqamli ma’naviyat – bu faqatgina raqamli texnologiyalardan foydalanish madaniyati emas, balki raqamli makonda insoniylikni, ruhiy barkamollikni, axloqiy barqarorlikni saqlash va rivojlantirishga qaratilgan ma’naviy-axloqiy ong darajasidir.

Raqamli ma’naviyat – bu jamiyatning axborot madaniyatini oshirish, axloqiy immunitetini mustahkamlash, milliy g‘oyani zamonaviy texnologiyalar asosida targ‘ib qilish usullarini o‘z ichiga oluvchi yangi fenomen. U shuningdek, raqamli vositalar orqali axborot olish, uni tahlil qilish, ma’naviy qadriyatlarni bilan uyg‘unlashtirib ommaga yetkazish madaniyatini ifodalaydi. Bu jarayonda blogerlar, kontent yaratuvchilar va raqamli jurnalistlar asosiy rolni bajaradi.

Tadqiqotlarimiz tahlillari natijasida raqamli ma’naviyat tushunchasining mualliflik ta’rifini ishlab chiqdik. Bizningcha, “Raqamli ma’naviyat” – bu raqamli muhitda inson va jamiyat o‘rtasidagi axloqiy, madaniy, estetik va ijtimoiy qadriyatlarning virtual shaklda ifodalanishi, almashinuvi va rivojlanishini ta’minlovchi ongli, axloqiy faoliyat turi bo‘lib, u raqamli axborot vositalari orqali ongda va amaliyotda namoyon bo‘ladigan ma’naviy shakllarning yangi evolyutsion bosqichidir degan to‘xtamga kelindi. Bu tushunchaga mualliflik ta’rifini ishlab chiqishda falsafiy nuqtai-nazardan quyidagi jihatlar e’tiborga olindi:

“Ontologik jihat – raqamli ma’naviyat yangi turdagи mavjudlik shakli sifatida raqamli muhitda mavjud bo‘ladi, unda axloqiy va ma’naviy kategoriyalar virtual tarzda reallashadi. Gnoseologik jihat – bilimlar, qadriyatlarni ma’naviy tajriba endilikda raqamli axborotlar vositasida avloddan-avlodga uzatiladi, ijtimoiy ongda mustahkamlanadi. Aksiologik jihat – insonlar raqamli muhitda qanday qadriyatlarni tanlaydi, qanday axloqiy me’yorlarga amal qiladi – bularning barchasi jamiyat ma’naviy salohiyatining belgilovchisiga aylanadi. Kommunikativ jihat – raqamli ma’naviyat jamiyat a’zolari o‘rtasidagi axborot almashinuvida axloqiylik, madaniylik va ma’nolilik mezonlarini belgilaydi”[6]. Umuman olganda, raqamli ma’naviyat – bu insoniyat tarixida yuz berayotgan raqamli sivilizatsiyalashuv sharoitida ma’naviyatning yangi fazoviy, ongli va axloqiy shaklga aylanishidir. Bu hodisa insoniyatning o‘zini anglash,

qadriyatlarni saqlash va yangilash bo'yicha raqamli muhitda olib borayotgan ongli harakatining ifodasidir.

"Raqamli ma'naviyat" atamasi mustaqil konsepsiya sifatida nisbatan yangi bo'lib, uning shakllanishi texnologik taraqqiyot, internet va raqamli madaniyatning rivojlanishiga bevosita bog'liq. Quyida ushbu tushunchaning evolyutsiyasini davrlashtirish asosida tarixiy-falsafiy nuqtayi nazardan shartli ravishda 4 ta davrga bo'lib o'rganish o'rinni hisoblanadi:


Birinchi davr – boshlang'ich kontseptual davr (1980–1999-yillar): "Axborot axloqi" va texnologik ong shakllanishi bu davrda kompyuter etikasi, axborot erkinligi, shaxsiy hayotni himoya qilish, kiberaxloq tushunchalari paydo bo'la boshladi. Norbert Viner, Jeyms Heller Mur, Debora Jonson kabi amerikalik faylasuf va axloqshunoslari izlanishlarida raqamli ma'naviyat tushunchasi aynan tadqiq qilinmagan bo'lsa-da, axborot etikasi yoki kompyuter axloqi kabi yo'naliishlarida olib borgan tadqiqotlari, keyinchalik "raqamli ma'naviyat" konsepsiysi uchun zamin yaratdi.

Ikkinci davr – rivojlangan tarmoq ongingin paydo bo'lishi (2000–2010-yillar): "Raqamli madaniyat" va "identitet", internetning ommaviylashuvi, Web 2.0 texnologiyalari, ijtimoiy tarmoqlar, virtual identitet, raqamli kommunikatsiyalari asosiy kun tartibiga chiqqanligi bilan ahamiyatlidir. Manuel Kastels, Sherri Terkl kabi amerikalik sotsiolog olimlarning "Axborot jamiyat", "Onlayn identitet, shaxs va texnologiya o'rtasidagi psixologik bog'liqlik" kabi nazariyalari shakllandı. Bu davrda "raqamli madaniyat", "raqamli jamiyat", "virtual shaxsiyat" kabi tushunchalar shakllandı. Ma'naviyat masalalari bilvosita ko'tarila boshladi.

Uchinchi davr – integratsion davr (2010–2020-yillar): Raqamli axloq va ijtimoiy mas'uliyat masalalari kun tartibidan sun'iy intellekt, algoritmik axborot, feyk yangiliklar, kiberxavfsizlik, raqamli axloqiylik, onlayn mas'uliyat kabi tushunchalar o'rinni olganligi bilan ajralib turgan davrdir. Luchiano Floridi (italiyan), Klaus Maintser (nemis), Nik Bostorom (shved) faylasuflarining "Raqamli etika" (Digital Ethics), "raqamli axloq" (Digital Morality) kabi tushunchalari asosida raqamli faoliyatning ma'naviy-axloqiy mezonlari ishlab chiqila boshlandi. Shu davrda raqamli ma'naviyat tushunchasining nazariy zaminlari mustahkamlandi.

To'rtinchi davr – mustaqil tushuncha sifatida shakllanishi (2020-yildan hozirgacha): "Raqamli ma'naviyat" konsepsiyasining paydo bo'lishiga, pandemiya ta'siri bilan onlayn hayotning kengayishi, raqamli ta'lim, metavers, raqamli ong, sun'iy intellekt asosidagi axloqiy tanlovlari sabab bo'ldi. Bu davrning o'ziga xos ikki jihatini: 1) raqamli muhitda shaxsiy, qadriyatlar, axloq va ongga oid dolzarb muammolar keng muhokamasi va 2) raqamli makondagi axloqiy-huquqiy me'yorlarni belgilashga bo'lган ehtiyojning kuchayishini ajratib ko'rsatish mumkin.

Raqamli ma'naviyatning tarkibiy qismlari:



Yuqoridagi chizmada keltirilgan raqamli ma'naviyatning tarkibiy qismlarining sharhiga qisqacha to'xtalib o'tamiz. "Raqamli madaniyat – texnologiyalarni o'zlashtirish darajasi, ularni madaniy, estetik va ijodiy faoliyatda to'g'ri qo'llay olish qobiliyatidir. Axloqiy me'yorlar – raqamli makonda muloqot qilish, axborot ulashish, tanqid bildirish, shaxsiy ma'lumotlar bilan muomala qilishda axloqiy javobgarlik. Virtual shaxsiyat – insonning raqamli makonda o'zini namoyon etish shakli; bu real shaxsiyatdan ajralgan holda, ammo unga asoslangan raqamli identitetdir. Media me'yorlar – internetda axborot ishlab chiqarish va iste'mol qilishda odob va axloqiy me'yorlarga amal qilish tizimi"[7] deb hisoblaymiz.

Ontologiya falsafiy kategoriyalar ichida eng muhimlaridan biri bo'lib, u mavjudlik, borliq va uning shakllari to'g'risida fikr yuritadi. Raqamli ma'naviyat tushunchasining ontologik jihatni uning mavjudlik shakli sifatidagi mohiyatini anglashni taqozo etadi. Raqamli ma'naviyatni ontologik darajada o'rganish – bu uning qanday reallikda, qanday asoslarda paydo bo'lishini va qanday shakllarda o'z ifodasini topishini aniqlashdir.

An'anaviy ma'naviyat g'oyalari insoniyatning real ijtimoiy munosabatlari, tarixiy tajribasi va axloqiy ideallariga asoslanib kelgan. U konkret jamiyatda, muayyan tarixiy davrda, muayyan urf-odatlar va diniy-falsafiy qarashlar orqali shakllangan. Ammo XXI asr raqamli texnologiyalar orqali shakllanayotgan yangi madaniyat va kommunikatsiya muhiti – insoniyatning ma'naviy dunyosiga ham tubdan yangilik olib kirdi. Bu jarayon raqamli muhitning o'zini ijtimoiy-ontologik borliq shakli sifatida tan olish zaruratini yuzaga chiqardi.

Raqamli makon – bu axborot vositalari orqali inson faoliyatining ko'p qirrali jihatlarini o'zida mujassamlashtirgan sun'iy mavjudlik shaklidir. Raqamli muhitda insonlar muloqot qiladi, bilim oladi, qadriyatlarni baholaydi, yangi axloqiy holatlarni boshdan kechiradi va ularni tarqatadi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, raqamli ma'naviyat faqat ma'lumot yoki axloqiy g'oya emas, balki u borliqning yangi shakli – raqamli reallikda yashovchi ongning ma'naviy holatdir.

Raqamli ma’naviyatning mavjudlik shakli sifatidagi asosiy xususiyati – u virtual, lekin ta’sirchan. U real voqelikdan ajralgan bo‘lsa-da, inson ongiga, ijtimoiy qarorlariga va jamoaviy xatti-harakatlarga real ta’sir ko‘rsatadi. Boshqacha aytganda, u ontologik jihatdan ikkilamchi, ya’ni sun’iy shaklda yuzaga kelgan bo‘lsa ham, ijtimoiy faoliyatga bevosita ta’sir etuvchi birlamchi omilga aylanadi. Ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilgan axloqiy norma yoki qadriyatlar real hayotda kishilarning qaroriga ta’sir ko‘rsatadi, bahs-munozaralar, ijtimoiy harakatlar yoki hatto qonunchilikda o‘z aksini topadi.

Ontologik jihatdan raqamli ma’naviyat – “bu gibrid mavjudlik shaklidir: u nafaqat “virtual” yoki “real” sferalarda mavjud, balki ularning o‘zaro sintezida, ularning chegarasini yo‘q qiluvchi interfeys sifatida amal qiladi. Bu interfeys orqali inson o‘zining ma’naviy mohiyatini boshqa ko‘rinishda, raqamli vositalar orqali ifoda eta oladi”[8]. Demak, raqamli ma’naviyat – bu inson ma’naviyatining ontologik o‘zgarish bosqichi bo‘lib, u raqamli transformatsiyalar davrida paydo bo‘lgan va yangi borliqdagi ma’naviy ong shaklini ifodalaydi.

Raqamli ma’naviyatning ontologik mohiyati shundaki, u insonning mayjudlik chegaralarini kengaytiradi, uni faqat jismoniyoq voqelik bilan cheklamay, raqamli makon orqali ham anglaydigan, baholaydigan va shakllantiradigan holatga keltiradi. Bu esa falsafa uchun yangi tadqiqot maydoni, jamiyat uchun esa yangi axloqiy muhit yaratadi.

Gnoseologiya – bu bilimning kelib chiqishi, mohiyati, shakllanishi va inson ongida aks etish jarayonini o‘rganadigan falsafiy yo‘nalishdir. Shu nuqtai nazardan qaralganda, raqamli ma’naviyatning gnoseologik jihat – bu ma’naviy qadriyatlar, axloqiy normalar va madaniy tajribaning qanday qilib raqamli muhitda yaratilishi, uzatilishi va anglanishini tahlil qiladi. XXI asr boshidan boshlab global raqamli transformatsiya jarayonlari insoniyat tarixida bilim va ma’naviyat uzatishning tubdan yangi bosqichini boshlab berdi.

Avvallari bilimlar va ma’naviy meros yozma, og‘zaki yoki kitoblar vositasida avloddan-avlodga uzatilgan bo‘lsa, hozirda bu jarayon ko‘proq raqamli axborot oqimlari orqali amalga oshmoqda. Bloglar, ijtimoiy tarmoqlar, raqamli kutubxonalar, podkastlar, video platformalar, sun’iy intellekt tizimlari – bularning barchasi yangi gnoseologik muhitni shakllantirdi. Endilikda insonlar nafaqat axborotni qabul qiladi, balki ularni ma’naviy tajriba va qadriyatlar shaklida qayta ishlaydi, baholaydi va o‘zaro almashadi.

“Bu jihatdan qaralganda, raqamli ma’naviyat gnoseologik nuqtai nazardan uch asosiy jarayonni anglatadi:

1. Ma’naviy bilimlarni raqamlashtirish – diniy, falsafiy, axloqiy va madaniy qadriyatlarning raqamli shaklga o‘tkazilishi (video, podkast, infografika va h.k.) orqali ularning saqlanishi va ommalashuvi ta’minlanadi. Milliy qadriyatlar yoki diniy-axloqiy risolalarning mobil

ilovalar ko‘rinishida mavjud bo‘lishi ma’naviy bilimlarning raqamli gnoseologiyasini tashkil etadi.

2. Interaktiv bilim almashinuvi – blogosfera, forumlar, ijtimoiy tarmoqlar orqali insonlar ma’naviy mavzular yuzasidan fikr almashadi, muhokama yuritadi, o‘z tajribasi bilan bo‘lishadi. Bu jarayon o‘quvchi va yaratuvchi (kreator) o‘rtasidagi chiziqli modeldan farqli o‘laroq, ko‘p yo‘nalishli gnoseologik tarmoq shaklida bo‘ladi.

3. Sun’iy intellekt va algoritmik gnoseologiya – ma’naviy kontentlarni filtrlovchi, tavsiya qiluvchi algoritmlar orqali odamlar qanday axloqiy bilimga duch kelishini sun’iy tizimlar belgilaydi. Bu esa bilim va qadriyatlar tanlanishida insondan tashqari ong (algoritm)ning gnoseologik rolini kuchaytiradi”[9]. Shunday qilib, raqamli ma’naviyatda bilimlar endilikda statik shaklda emas, balki dinamik, tezkor va moslashuvchan formatda mavjud bo‘ladi. Insonlar o‘z ongida raqamli axborot asosida ma’naviy tushunchalarini shakllantiradi, ularni tahlil qiladi va o‘z hayotiy pozitsiyasini aniqlaydi. Bu jarayon gnoseologik jihatdan interaktiv, gibrildi va ko‘p manbalni bilim shakllanishi bo‘lib, an’anaviy gnoseologiyadan tubdan farq qiladi.

Bundan tashqari, raqamli muhitda anglanayotgan ma’naviy bilimlar ko‘pincha vizual va emotsiyal vositalar orqali yetkaziladi. Bu esa gnoseologiyaning yangi qirrasini – tasviriy va hissiy bilim orqali ma’naviy ongni shakllantirish tamoyilini ilgari suradi. Video kontentlar, raqamli hikoyalar va memlar orqali ham axloqiy va falsafiy tushunchalar keng auditoriyaga yetkaziladi.

Raqamli ma’naviyatning gnoseologik jihatni uning bilim sifatida qanday shakllanayotganini, qanday vositalar orqali ongga ko‘chayotganini va qanday mantiqiy asoslarda idrok etilayotganini ochib beradi. Bu jarayon raqamli epoxa sharoitida insoniyat ma’naviy merosining ommalashuvi, qayta talqini va yangi shakllarda davom etishini ta’minlaydi. Bugun kunda raqamli ma’naviyat zamonaviy jamiyatda insonning ongini, qadriyatlar tizimini va ijtimoiy xulq-atvorini o‘zgartirishga qodir bo‘lgan kuchli omillardan biri sifatida maydonga kirib keldi. Mazkur fenomen ikkita asosiy aks ettiruvchi (reflektiv) va shakllantiruvchi (konstruktiv) funksiyani bajaradi.

Birinchidan, aks ettiruvchi funksiyasi raqamli muhit orqali mavjud bo‘lgan ma’naviy holat, ijtimoiy qadriyatlar, urf-odatlar va jamiyatdagi axloqiy tendensiyalarning raqamli formatda ifodalananishiga asoslanadi. Ijtimoiy tarmoqlar, bloglar, veb-saytlar va boshqa raqamli platformalarda jamiyat a’zolarining munosabatlari, dunyoqarashi, axloqiy pozitsiyasi ochiq ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Bu orqali ijtimoiy muhitdagi ma’naviy jarayonlar tahlil qilandi va baholanadi. Masalan, diniy bag‘rikenglik, millatlararo totuvlik, oilaviy qadriyatlar haqidagi fikrlar va munosabatlar aynan raqamli axborot makonida aks etadi va jamiyatning axloqiy darajasini ko‘rsatuvchi o‘ziga xos indikator bo‘lib xizmat qiladi.

Ikkinchidan, shakllantiruvchi funksiyasi raqamli vositalar orqali inson ongi va ong ostiga ta’sir etish orqali yangi ma’naviy qadriyatlarni yuzaga keltirishga yo‘naltirilgan. Raqamli

axborotlar – videolar, podkastlar, vizual kontentlar, motivatsion matnlar, onlayn ma’ruzalar va ta’lim platformalari orqali jamiyatga ma’naviy g‘oyalar singdiriladi. Bu jarayonda ayniqsa yoshlar ma’naviy ongini shakllantirishda faol auditoriya hisoblanadi. Axborot tanlash erkinligi sharoitida ular o‘z dunyoqarashini zamonaviy ma’naviy ko‘rsatkichlar asosida shakllantiradi. Shu jihatdan, raqamli makon endilikda ma’naviy tarbiyaning muhim maydoniga aylanib ulgurdi.

Raqamli ma’naviyatning aks ettiruvchi, shakllantiruvchi ushbu “ikki funksiyasi o‘zaro dialektik bog‘liq: jamiyatdagi ma’naviy holat raqamli muhitda aks etar ekan, u ayni paytda shu muhit orqali qayta shakllanadi”[10]. Ya’ni, odamlar tomonidan raqamli maydonga chiqarilgan axloqiy-ruhiy kontentlar boshqa odamlarning fikriga, his-tuyg‘usiga va qadriyatlar tizimiga ta’sir ko‘rsatadi. Bu jarayon ijtimoiy-falsafiy tahlilni talab qiladigan murakkab hodisa bo‘lib, raqamli davrda ma’naviyatni boshqarish, himoya qilish va rivojlantirish zaruratini yuzaga chiqaradi. Raqamli ma’naviyat zamonaviy ijtimoiy ongning muhim elementiga aylanib, ijtimoiy qadriyatlar, dunyoqarashlar va axloqiy me’yorlarning harakatdagi holatini nafaqat aks ettiradi, balki ularni faol shakllantiruvchi kuch sifatida ham namoyon bo‘lmoqda. Bu esa falsafa, pedagogika va axloqshunoslik nuqtai nazaridan yangi ilmiy yondashuvlar ishlab chiqishni taqozo etadi.

“2025 yilgi OAV erkinligi indeksida O‘zbekiston 148-o‘rnini saqlab qoldi, ammo mamlakatning beshta yo‘nalishdagi reyting ko‘rsatkichlaridan barchasi pasaydi. “Chegara bilmas muxbirlar” xalqaro tashkilotining Xalqaro kuzatuvchilarga ko‘ra, O‘zbekistonda so‘z erkinligi bo‘yicha vaziyat “juda jiddiy”ligicha qolmoqda. 2025 yilgi reytingda O‘zbekiston 180 ta mamlakat orasida o‘tgan yilgi kabi 148-o‘rinni egallagan va hamon so‘z erkinligi bo‘yicha vaziyat “juda jiddiy” davlatlar qatorida qolmoqda. O‘zbekistondagi OAV erkinligining darajasi o‘tgan yili 100 baldan 37 balga, bu yil esa 35 ballga baholangan. Qayd etilishicha, kuzatilayotgan 180 davlatning 160 tasida OAV umuman barqaror ishlay olmaydi yoki buni faqat qiyinchilik bilan amalga oshirishi mumkin. Mamlakatlarning deyarli uchdan birida tahririyatlar iqtisodiy sabablarga ko‘ra yopilgan, ularga rasmiyalar tomonidan ko‘pincha bosim o‘tkazilgan. 46 ta davlatda OAV faqat oz sonli egalari tomonidan nazorat qilinadi”[11].

Yangi O‘zbekiston – bu inson manfaatlari ustuvor bo‘lgan, adolat, taraqqiyot va innovatsiyalar ustiga qurilgan davlat konsepsiyasidir. Ushbu yangi tarixiy bosqichda jamiyat hayotining barcha sohalarida, xususan ma’naviyat sohasida ham tub islohotlar olib borilmoqda. Shu jumladan, raqamli transformatsiya jarayoni bilan uyg‘unlashgan raqamli ma’naviyat tushunchasi ham tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli ma’naviyat – bu zamonaviy texnologiyalar vositasida shakllanadigan, uzatiladigan va qo‘llab-quvvatlanadigan axloqiy-ruhiy qadriyatlar tizimidir. Yangi O‘zbekiston sharoitida uning rivojlanish yo‘nalishlari va istiqbollari quyidagi asosiy yo‘nalishlarda namoyon bo‘lmoqda:

1. Raqamli savodxonlik asosida ma’naviy immunitetni shakllantirish. Yangi O‘zbekistonda yoshlar raqamli dunyoda faol ishtirok etmoqda. Bu holat ularda texnologik imkoniyatlardan foydalanish bilan birga, ijtimoiy tarmoqlarda axloqiy me’yorlarni tushunish va ularga amal qilish zaruratini ham yuzaga keltiradi. Shu bois raqamli savodxonlik – faqat texnik bilimlar emas, balki raqamli ma’naviy madaniyatni ham o‘z ichiga oladigan ko‘p qirrali kompetensiyadir. Maktab, kollej va oliy ta’lim tizimida raqamli axloq, onlayn etiket, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, ijtimoiy tarmoqlarda madaniyatli muloqot yuritish bo‘yicha dasturlar ishlab chiqilishi va amaliyotga joriy qilinishi raqamli ma’naviyatning rivojlanishida muhim qadam bo‘ladi.

2. Ma’naviy kontentlar ishlab chiqarishni raqamli platformalarda rivojlantirish. Raqamli makon – bu zamonaviy inson ongiga ta’sir etuvchi eng qudratli omil. Shu bois, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlovchi kontentlarni ko‘paytirish dolzarb masaladir. Hozirgi kunda Yangi O‘zbekistonda “OAV, blogerlar, yozuvchilar, olimlar va pedagoglar raqamli platformalar orqali turli ma’naviy g‘oyalarni tarqatishga harakat qilmoqdalar. Bu tendensiyani ilmiy asoslash, maqsadli auditoriyalar uchun vizual, interaktiv va foydali materiallar ishlab chiqish zarur”[12]. Jumladan, YouTube kanallar, TikTok videolar, Instagram sahifalar, Telegram kanallari orqali vatanparvarlik, milliy qadriyatlar, oila muqaddasligi, halollik, insonparvarlik kabi mavzularda keng ommani jalg etadigan kontentlar yaratish istiqbolli yo‘nalish sanaladi.

3. Axloqiy monitoring va raqamli tahlil mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish. Raqamli maydonning jadal kengayishi bilan birga, unda tarqalayotgan axloqiy jihatdan zararli axborotlarni aniqlash va tahlil qilish ehtiyoji ortmoqda. Shu munosabat bilan, Yangi O‘zbekistonda raqamli axloq monitoringi mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish zarur. Bu orqali ijtimoiy tarmoqlarda, axborot saytlarda yoki bloglarda aks etayotgan ma’naviy tendensiyalar o‘rganiladi, zararli kontentlarga qarshi profilaktika ishlari olib boriladi. Bunday monitoring algoritmlarini sun’iy intellekt yordamida tashkil etish, masalan, axloqiy normalarga zid postlarni filtrlaydigan tizimlar yaratish istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi.

4. Ta’lim va tarbiyada raqamli ma’naviyat tamoyillarini integratsiyalash. Yangi O‘zbekistonda ta’lim tizimi tubdan isloh qilinmoqda. Shu jarayonda raqamli vositalar orqali yosh avlodda ma’naviy immunitet, axloqiy mas’uliyat va ijtimoiy ongni shakllantirishga qaratilgan o‘quv kurslari va fanlar ishlab chiqilishi kerak. Jumladan, “Raqamli etika”, “Axborot xavfsizligi va ma’naviyat”, “Onlayn axloqiy qadriyatlar” kabi kurslar orqali talaba-yoshlarga nafaqat texnik bilim, balki raqamli makonda mas’uliyatli fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish yo‘lga qo‘yilishi zarur.

5. Milliy va diniy qadriyatlarni raqamli formatda saqlash va ommalashtirish. Yangi O‘zbekiston raqamlashtirish siyosatini olib borar ekan, milliy o‘zlikni saqlash va mustahkamlashni ham asosiy maqsad qilib qo‘ygan. Shu bois, milliy va diniy qadriyatlarni raqamli formatda saqlash

hamda keng ommaga yetkazish muhim ahamiyatga ega. Masalan, qadimiy qo‘lyozmalarni raqamlashtirish, milliy madaniyatga oid elektron kutubxonalar yaratish, ma’naviy merosga oid mobil ilovalar ishlab chiqish orqali bu yo‘nalishda salmoqli natijalarga erishish mumkin.

6. Blogosfera va raqamli liderlik orqali ma’naviy yetakchilikni shakllantirish. Bugungi kunda blogerlar jamiyatda katta ta’sir kuchiga ega bo‘lgan ijtimoiy guruhga aylangan. Yangi O‘zbekistonda ushbu ijtimoiy guruhni ma’naviy mas’uliyatga ega raqamli liderlarga aylantirish – istiqbolli vazifadir. Blogosfera faollari orasida vatanparvarlik, halollik, bilimga chanqoqlik, insonparvarlikni targ‘ib qiluvchi shaxslar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularni davlat mukofotlari va grantlari orqali rag‘batlantirish raqamli ma’naviyatni rivojlantirishda samarali bo‘ladi.

Raqamli ma’naviyatni amaliyotda qo‘llash jarayonida istiqbolda ikkita xavfning vujudga kelish ehtimoli mavjud: bular birinchidan, raqamli simulyatsiya va sun’iy ongning shaxsiyatga ta’siri; ikkinchidan, ommaviy axborot vositalari va bloglar orqali qadriyatlarning nisbiylashtirilishi kabi masalalarga duch kelinadi.

Zamonaviy texnologiyalar, xususan raqamli simulyatsiya va sun’iy ong (SO), “inson shaxsiyati shakllanishi va rivojlanishida muhim omillardan biriga aylandi. Bu texnologiyalar inson ongiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-madaniy muhitni sun’iy tarzda yaratish, real voqelikni o‘zgartirish yoki yangidan modellashtirish imkonini beradi”[13]. Ayniqsa, raqamli simulyatsiyalar orqali insonlar o‘zini boshqa sharoitda, boshqa rol yoki mavqeda sinab ko‘rishi, bu orqali o‘z shaxsiy fazilatlarini qayta kashf etishi mumkin. Bu esa, bir tomondan, ijobiy o‘zgarishlarga yo‘l ochsa, boshqa tomondan, real hayotdan uzilish, ijtimoiy aloqalarning susayishi va shaxsiy inqiroz holatlariga olib kelishi mumkin.

Sun’iy ongning rivojlanishi bilan insonlar bilan muloqot qiluvchi virtual agentlar hayotga kirib keldi. Ular orqali odamlar o‘z his-tuyg‘ularini ifoda etadi, maslahat oladi, hatto psixologik dalda topadi. Bu esa sun’iy ongni faqat texnik vosita emas, balki inson shaxsiyatiga ta’sir ko‘rsatuvchi yangi ijtimoiy faoliyat sub’ekti sifatida ko‘rishga asos beradi. “Sun’iy ong orqali shakllangan axborot oqimi inson qadriyatlariga, dunyoqarashiga, xatti-harakatiga bevosita ta’sir qiladi. Biroq bu ta’sir ikki tomonlama bo‘lishi mumkin: bir tomonidan, sun’iy ong yordamida inson o‘zini anglash, o‘z imkoniyatlarini rivojlantirish imkoniga ega bo‘lsa, boshqa tomonidan, ongiga tashqi nazoratning kuchayishi, manipulyatsiyaga uchrash xavfi ham mavjud”[14]. Shaxsiyatni anglash, erkin tanlov qilish va mas’uliyathi qaror qabul qilish imkoniyati sun’iy tizimlar orqali cheklanishi ehtimoli ham ortib ketdi. Raqamli simulyatsiya va sun’iy ongning shaxsiyatga ta’siri ko‘p qirrali bo‘lib, bu ta’sirni boshqarish, nazorat qilish va unga qarshi falsafiy-axloqiy immunitet shakllantirish zamonaviy jamiyatning dolzarb vazifasiga aylanib ulgurdi.

Axborot texnologiyalari rivojlanishi bilan jamiyatdagi qadriyatlar tizimi ommaviy axborot vositalari (OAV) va bloglar ta’siri ostida sezilarli darajada o‘zgarib bormoqda. An’anaviy

qadriyatlar – vatanparvarlik, halollik, ota-onaga hurmat, jamiyatga xizmat qilish kabi tushunchalar tarixiy-madaniy kontekstda shakllangan bo‘lsa, zamonaviy axborot oqimlari ularni ko‘p holatda shubha ostiga qo‘yadi yoki nisbiylashtiradi. Ya’ni, qadriyatlar mutlaq emas, balki muayyan holat, shaxsiy istak yoki zamonaviy trendlarga qarab talqin qilinayotgan jarayon aylandi. “Bloglar va ijtimoiy tarmoqlardagi shaxsiy fikrlar, individual qarashlar keng ommaga tezda yetib boradi va ko‘plab foydalanuvchilar tomonidan qabul qilinadi. Bu esa, bir qarashda, fikrlar erkinligi va demokratik yondashuv kabi ko‘rinadi. Ammo buning salbiy tomoni – har qanday fikr “qadriyat” sifatida ilgari surilishi va an’anaviy tushunchalarning inkor qilinishi yoki ularning ahamiyati pasayishidir”[15]. Masalan, oila muqaddasligi, milliy g‘urur yoki diniy qadriyatlar ayrim blogpostlar va videolarda zamonaviylik nomi ostida masxara qilinishi, ularning nisbiy xarakterda talqin etilishiga olib kelmoqda.

Shuningdek, “OAV ko‘pincha global yondashuvni ilgari suradi, bunda G‘arb madaniyati va qadriyatları “universallik” sifatida ko‘rsatiladi. Bu esa lokal, ya’ni milliy qadriyatlarning chekinishiga sabab bo‘ladi. Raqobatga asoslangan ommaviy axborot maydonida eng ko‘p ko‘rilgan, bahsli yoki shov-shuvli kontent afzallikka ega bo‘ladi”[16]. Bunday sharoitda chuqr, tarixiy ildizlarga ega ma’naviy qadriyatlar ko‘pchilik e’tiboridan chetda qoladi yoki zamonaviy talqinda eriydi. OAV va bloglar bugungi kunda qadriyatlar nisbiylashuvining asosiy manbalaridan biriga aylanib, bu holat jamiyatda axloqiy barqarorlikni izdan chiqarishi, madaniy o‘zlikni yo‘qotish xavfini tug‘diradi. Shu sababli, axborot maydonida tanqidiy tafakkurni rivojlantirish va axboriy madaniyatni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, “Raqamli ma’naviyat” – jamiyatning yangi axloqiy mezonlarini shakllantiruvchi omil sifatida, Yangi O‘zbekiston sharoitida raqamli texnologiyalar ma’naviy rivojlanishning muhim omiliga aylanmoqda. Bu tushuncha jamiyatda axloqiy qadriyatlarni saqlash, targ‘ib qilish va yoshlar ongiga singdirishda zamonaviy raqamli platformalardan foydalanishni nazarda tutadi. Shu bois, raqamli ma’naviyat jamiyatning axloqiy me’yorlarini mustahkamlovchi yangi vosita sifatida talqin qilinadi.

Ikkinchidan, raqamli makonda axloqiy immunitetni shakllantirish zarurat hisoblanadi. Internet va ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan turli g‘oya va axborotlar fonida insonlarning ma’naviy immuniteti tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yangi O‘zbekiston sharoitida raqamli ma’naviyatni rivojlantirish orqali yoshlar ongida tanqidiy fikrlash, axborotni tahlil qilish va uni axloqiy-me’yoriy filtdan o‘tkaza olish qobiliyatini shakllantirish zarur ijtimoiy hodisaga aylanadi.

Uchinchidan, raqamli savodxonlik va ma’naviy savodxonlik uyg‘unligining ta’minlash muhim sanaladi. Raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish faqat texnik bilimlar bilan emas, balki ularning ma’naviy-axloqiy oqibatlarini chuqr anglash bilan bog‘liqdir. Shu bois, raqamli

savodxonlikni ma’naviy savodxonlik bilan uyg‘unlashtirish, bu ikki yo‘nalishni birlgilikda rivojlantirish Yangi O‘zbekistonning ma’naviy siyosatida muhim strategik vazifani bajarib beradi.

To‘rtinchidan, milliy qadriyatlarning raqamli formatda tiklanishi va targ‘ib etilishi lozim. Raqamli ma’naviyatni rivojlantirish yo‘lida internet, mobil ilovalar va sun‘iy intellekt texnologiyalaridan foydalanib, o‘zbek xalqining boy madaniy merosini ommalashtirish, milliy urf-odatlar, tarixiy shaxslar va qadriyatlar haqida raqamli kontentlar yaratish jarayoni kuchaymoqda. Bu esa raqamli makonda milliy o‘zlikni tiklashga xizmat qiladi.

Beshinchidan, davlat va fuqarolik jamiyati institutlari hamkorligida raqamli ma’naviyatni targ‘ib qilish ehtiyoji mavjud. Raqamli makonda sog‘lom ma’naviy muhitni shakllantirish davlat siyosati bilan bir qatorda, nodavlat tashkilotlar, blogerlar, olimlar, jurnalistlar va keng jamoatchilik ishtirokida amalga oshirilishi lozim. Bu hamkorlik orqali raqamli axloqiy tartiblar, ijtimoiy tarmoqlarda mas’uliyatli xulq-atvor me’yorlari keng joriy qilinishiga erishiladi.

Mavzuni o‘rganish natijasida quyidagi amaliy takliflar ilgari surildi:

- Ta’lim tizimida raqamli ma’naviyatni rivojlantirish – raqamli etika, media savodxonlik va ma’naviy qadriyatlarni uyg‘unlashtirgan o‘quv dasturlarini joriy etish.
- Yoshlar uchun ma’naviy platformalar yaratish – onlayn portal va mobil ilovalar orqali milliy qadriyatlarni, ma’rifiy kontent va tarbiyaviy loyihalarni keng targ‘ib qilish.
- Ijtimoiy tarmoqlarda ma’naviy muhitni mustahkamlash – zararli axborot oqimlariga qarshi kurashish va ijobiy kontentni kengaytirish bo‘yicha samarali strategiyalar ishlab chiqish.
- Raqamli ma’naviyat monitoringi – jamiyatdagi raqamli axloqiy muammolarni muntazam o‘rganib, davlat va fuqarolik jamiyati institutlari uchun tavsiyalar ishlab chiqish.
- Xalqaro tajribani integratsiya qilish – raqamli ma’naviyat rivoji bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganib, ularni milliy qadriyatlarni bilan uyg‘unlashtirgan holda qo‘llash..

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Plato Phaedrus. – London.: “BoD - Books on Demand”, 2022 – P.10.
2. Aristotle’s Nicomachean Ethics. Translated by Robert C. Bartlett and Susan D. Collins. “University of Chicago Press”, 2011. – P. 131.
3. Kant: Groundwork of the Metaphysics of Morals (Cambridge Texts in the History of Philosophy). Mary Gregor (Translator), Jens Timmermann (Translator), Christine M. Korsgaard (Introduction). Cambridge University Press, 2021. – P.45.
4. Гегель. Феноменология Духа. Философия истории. Перевод с немецкого Г.Г.Шпета. – М.: “Наука”, 2000. – С.128.
5. Марков Б.В. Мораль и право в цифровом обществе. // Вестник СПбГУ. Философия и конфликтология. 2022. Т. 38. Вып. 4 – С.512-523.

6. Sayfitdinova M. Blog-kontentlar evolyutsiyasi va uning jamiyat ma'naviy muhitiga ta'siri. // Makon va zamon. №2. 2025. – B.115.
7. Sayfitdinova M.Sh. Raqamli jamiyatda blog-kontentlarning ijtimoiy axborotni tarqatishdagi o'rni. // Falsafa va e'tiqod: o'tmish, bugun va kelajak. Xalqaro ilmiy-amaliy konferansiya materiallar to'plami. – Chirchiq.: "CHDPU nashiriyoti", 2025.
8. Щекотин Е. В. Цифровая реальность и изучение качества жизни населения: онтологические и гносеологические аспекты. Социальная реальность виртуального пространства социальная реальность виртуального пространства виртуального пространства социальная реальность ISBN 978-5-9624-1959-6 Материалы III Международной научно-практической конференции. – Иркутск.: "Издательство ИГУ", 2021. – С.70.
9. Олешко В.Ф. Коммуникативно-культурная память: идентификационные ресурсы современных массмедиа / // Гуманитарный вектор. 2019. – Т. 14, № 5. – С. 77–86. – DOI: 10.21209/ 1996-7853-2019-14-5-77-86.
10. Анохина В.В. Глокализация как механизм социокультурной динамики в эпоху поздней современности // Современное медиапространство: тенденции развития и практики изучения– Минск.: Колорград, 2024. – С.3-7.
11. <https://kun.uz/news/2025/05/02/ozbekiston-matbuot-erkinligi-indeksida-148-orinda-qoldi>.
12. Sayfitdinova M.Sh. Raqamli jamiyatda blog kontentlarning ijtimoiy axborotni tarqatishdagi o'rni. "FALSAFA VA E'TIQOD: O'TMISH, BUGUN VA KELAJAK" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya – Chrchiq.: "Chirchiq davlat pedagogika universitet press", 2025. – B. 641-647.
13. Цехмистренко А.В. Взаимовлияние ценностных ориентаций личности и социальной действительности. // КОНЦЕПЦИЯ «ОБЩЕСТВА ЗНАНИЙ» В СОВРЕМЕННОЙ НАУКЕ: Сборник статей по итогам Международной научно-практической конференции. – Стерлитамак.: ООО «АМИ», 2019 – С.154-158.
14. Евсеев В.И. Искусственный интеллект в современном мире: надежды и опасности создания и использования. // Аэрокосмическая техника и технологии. 2023 – С.16-34.
15. Зиновьевна Е.Г., Зюбан Е.В. Влияние социальных сетей на личность. // Научный интернет-журнал «Мир науки» » 2016, Том 4, № 5. – С. 13-14.
16. Колесникова Е.С. Роль визуальной рекламы в презентации социокультурных ценностей общества. // Медиа в современном мире. Молодые исследователи: материалы 22-й международной конференции студентов, магистрантов, аспирантов и соискателей. – Санкт-Петербург.: "С-Петербург. гос. ун-т", 2023. –C.665-667.